



THE REPRESENTATION OF CERTAIN ASPECTS OF THE SOCIO-POLITICAL AND SOCIO-ECONOMIC LIFE OF THE BUKHARA KHANATE DURING THE REIGN OF THE SHAYBANID DYNASTY IN THE SIXTEENTH CENTURY IN OTTOMAN TURKISH WRITTEN SOURCES

Tokhir Shukurov

Basic Doctoral Student

Karshi State University

Science ID: FQD-0726-0055

Karshi, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Muhammad Shaybani Khan, Sultan Selim I, Shah Ismail Safavi, Bukhara, Merv, Seydi Ali Reis, Rum (Turkey), Turkish soldiers, “Mir’at ul-Memalik”, “Katibi Rumi”.

Received: 08.08.26

Accepted: 09.08.26

Published: 10.08.26

Abstract: In this article, the socio-economic life of the Shaybanid state (Khanate of Bukhara), which ruled in Transoxiana in the 16th century, is analyzed based on the diaries and travelogues of envoys sent by the Ottoman Turkish Sultanate. Based on mutual ambassadorial exchanges, the first diplomatic relations established by the khans of the Shaybanid dynasty with the Ottoman Turkish Sultanate can be dated to the late 15th century and the first quarter of the 16th century. The main purpose of the diplomatic relations between the two states is directly linked to the regional geopolitical strategic process. This is because forming a military alliance with the Ottomans in the Shaybanids' struggle against the Safavids was one of the important factors of that period.

XVI ASR BUXORO XONLIGIDA SHAYBONIYLAR SULOLASI HUKMRONLIGI DAVRI IJTIMOY-SIYOSIY, IQTISODIY HAYOTINING AYRIM JIHATLARINI USMONLI TURK YOZMA MANBALARIDA YORITILISHI

Tohir Shukurov

Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

Email: shkurovtohir81@gmail.com

Ilmiy identifikatsiya raqami: FQD-0726-0055

Qarshi, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Muhammad Shayboniyxon, Sulton Salim I, Shoh Ismoil Safaviy, Buxoro, Marv, Seydi Ali Rais, Rum (Turkiya), turk askarlari, “Mir’ot ul-mamolik”, “Kotibi Rumiy”.

Annotatsiya: Mazkur maqolada XVI asrda Movarounnahrda hukmronlik qilgan Shayboniylar davlati (Buxoro xonligi)ning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti Usmoniy Turk sultonligi tomonidan yuborilgan elchilarning kundaliklari, safarnomalari asosida tahlil etilgan. Oʻzaro elchilik almashinuvlariga asoslanib Shayboniylar sulolasi xonlarining Usmoniy Turk sultonligi bilan oʻrnatgan dastlabki diplomatik aloqalarini XV asrning oxirlari - XVI asrning dastlabki choragi bilan belgilash mumkin. Ikki davlat oʻrtasidagi diplomatik aloqalardan asosiy maqsad bevosita mintaqaviy geosiyosiy strategik jarayon bilan bogʻlanadi. Boisi, shayboniylarning safaviylarga qarshi kurashida Usmoniylar bilan harbiy ittifoq tuzishi oʻsha davrning muhim omillaridan biri edi.

**ОСВЕЩЕНИЕ ОТДЕЛЬНЫХ АСПЕКТОВ ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ И
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ БУХАРСКОГО ХАНСТВА В
ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ ДИНАСТИИ ШЕЙБАНИДОВ В XVI ВЕКЕ В
ОСМАНСКИХ ТУРЕЦКИХ ПИСЬМЕННЫХ ИСТОЧНИКАХ**

Тохир Шукуров

Базовый докторант (PhD)

Каршинского государственного университета

Научный идентификационный номер: FQD-0726-0055

Кариши, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Мухаммед Шейбани-хан, Султан Селим I, Шах Исмаил Сефевид, Бухара, Мерв, Сейди Али-Рейс, Рум (Турция), турецкие солдаты, “Мират уль-мемалик”, “Катиби Руми”.

Аннотация: В данной статье на основе дневников и путевых заметок послов, отправленных Османским султанатом, анализируется социально-экономическая жизнь государства Шейбанидов (Бухарского ханства), правившего в Мавераннахре в XVI веке. Основываясь на взаимных обменах посольствами, первые дипломатические отношения, установленные ханами династии Шейбанидов с Османским султанатом, можно датировать концом XV – первой четвертью XVI века. Основная цель дипломатических отношений между двумя государствами непосредственно связана с региональным геополитическим

стратегическим процессом. Потому что заключение военного союза с Османами в борьбе Шейбанидов против Сефевидов было одним из важных факторов того времени.

Kirish. XVI - asr Buxoro xonligida hukmronlik qilgan Shayboniy xonlarining davlat boshqaruvi, o'tkazgan islohotlari, ichki va tashqi siyosati, tarixi va madaniyati muayyan darajada O'rta Osiyo xonliklarida yashab ijod etgan mahalliy tarixchilar tomonidan yozilgan asarlarda yoritilgan. Ularda Shayboniylar sulolasining tarixi, xonlar, siyosiy ta'siri katta bo'lgan din ulamolari, shaharlar, tarixiy obidalar, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, turli mamlakatlardan tashrif buyurgan elchilar, ichki va tashqi savdo munosabatlariga oid ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Ammo mahalliy manbalarning ba'zilar saroy tarixchilari tomonidan bitilganligini e'tiborga olib qaraganda ularda ko'proq xonlarning ijobiy sifatleri, mamlakatdagi ijtimoiy hayotning barqarorligi bilan bog'liq voqealar bir tomonlama yoritilganligiga guvoh bo'lish mumkin.

Vagolangki, XVI-XIX asrlar xonliklar tarixini yoritishda Seydi Ali Rais, Mehmed Amin Afandi, Daftardor Sayfi Chalabiy, Sulaymon Shukru, Halim Sobit Shibay, Abdurashid Ibrohim, Habibzoda Ahmad Kamol kabi turk sayyohlari tomonidan yozilgan asarlarda mahalliy manbalarda uchramaydigan ma'lumotlar yoritilganligi bilan ahamiyatlidir. Shu jihatidan ham sayohatnoma, kundalik, esdalik hamda safarnomalarda qayd etilgan voqea va hodisalar mahalliy manbalardagi ma'lumotlarni to'ldirilishida ma'lum darajada xizmat qiladi.

Asosiy qism. Muhammad Shayboniyxon uzoq davom etgan kurashlardan so'ng dastlab Dashti Qipchoqda bobosi Abulxayrxon davlatini tiklashga erishdi. 1499-yildan boshlab Movarounnahr tomon yurishlarni amalga oshirib o'z hududlarni kengaytirdi. 1500-1507 yillarda zabt etilgan Movarounnahr, Xorazm va Xurosonni birlashtirib poytaxti Samarqand bo'lgan davlatga asos soldi. Eron Safaviylar davlati bilan munosabatlari keskinlashishi ortidan shialarga qarshi kurashda Usmoniy turk sultoni Boyazid II (1481-1512) bilan o'zaro kelishuvga erishgan. Safaviylar Eroniga qarshi kurashish uchun ittifoq tuzish to'g'risida muzokaralar olib borgan. Muhammad Shayboniyxonning fojiali vafotidan keyin ham ikki davlat o'rtasida ittifoq tuzish masalasi uning jiyan Ubadullaxon tomonidan davom ettirilib, 1515-yilda elchi amir Sa'id Muhammadni Turkiyaga yuborilgani va Sulton Salim (1512-1520) bilan muzokaralar olib borganidan ham kuzatish mumkin. Sulton Salimning elchisi Muhammadbek esa o'sha yili Movarounnahr tomon kelgan. Sulton Salim o'zining maktubida Ubadullaxonni "qizil boshlar" (safaviylar)ga qarshi kurashishga chaqirgan. "Sharafnomayi shohiy"da turk sultoni Sulaymon I (1520-1566) bilan Navro'z Ahmadxon (Baroqxon) o'rtasida Eron shohi Taxmosp I (1524-1576)ga

qarshi ittifoq tuzilganligi va ular Safaviylar Eroniga qarshi birgalikda kurash olib borishga ahd qilganliklari aytiladi. Safaviylar bilan Turkiya va Shayboniylar o'rtasidagi mojarolar diniy niqobga o'ralgan bo'lib, aslida esa Eron, Kavkaz va Xuroson uchun olib borilgan siyosiy kurash natijasi edi. Biroq ushbu munosabatlar Kavkaz va Eron bilangina cheklanib qolmagan. Usmonlilar 1551-1557-yillarda shayboniylarning ichki kurashlariga ham faol aralashadi. Turk askarlari bu kurashda Navro'z Ahmadxon tarafida bo'ldilar. Ana shu turk askarlari Baroqxon va uning o'g'illari, xususan Bobo sulton tarafida turib, Nasaf yonida Abdullaxonga qarshi janglarda qatnashdilar. Demak, Usmonli turklar hukumati Safaviylar bilan bo'lgan urushlarda o'zbek xonlarining kuchidan foydalanish uchungina emas, balki Movarounnahrda Usmoniy turklarning siyosiy ta'sirini kuchaytirish maqsadida ham ushbu ichki kurashlarda faol ishtirok etgan. Yuqoridagi siyosiy jarayonlar ta'sirida ikki mamlakat o'rtasida elchilik almashinuvlari natijasida Buxoro xonligining Shayboniylar davri ijtimoiy-siyosiy hayotining muayyan jihatlari elchilar, sayyohlarning safarnoma, kundalik va sayohatnomalarda aks etganligini kuzatishimiz mumkin. [1,78]

Xususan, XVI asr Buxorodagi shayboniylar sulolasi hukmronlik qilgan davr tarixini yorituvchi manbalardan biri turk sayyohi, admiral Seydi Ali Rais qalamiga mansub "Mir'ot ul-mamolik" (Mamlakatlar ko'zgusi) asaridir. O'rta Osiyoda "Kotibi Rumiy" nomi bilan tanilgan Seydi Ali Rais 1548 yilda Usmoniylar sultoni Sulton Sulaymon Qonuniy (1520-1566) ning Kavkaz va Ozarbayjon orqali Eronga qarshi janglarida, 1552 yilda Kipr orolini qamal qilishda ishtirok etib, zo'r jasoratini namoyon etadi, shuningdek, mashhur Xayriddin Barbaros posho bilan birga Shimoliy Afrika qirg'oqlari uchun harbiy yurishlarda ham qatnashadi. Seydi Ali Rais shu janglarda ko'rsatgan katta harbiy mahorati tufayli Sulton Sulaymon Qonuniyning cheksiz hurmatiga sazovar bo'lib, keyinchalik Xalab sultoni qilib ham tayinlanadi. [2,124]

Seydi Ali Rais harbiy dengizchilik faoliyati tufayli kasb taqozosi ortidan Sind, Panjob, Afg'oniston, O'rta Osiyo, Xuroson, Ozarbayjon hududlarida bo'ladi va Eron orqali uzoq va mashaqqatli yo'lni bosib to'rt yildan so'ng 1556 yilda vataniga qaytadi. U shu sayohati davomida ko'zdan kechirgan va bevosita guvohi bo'lgan voqealarni "Mir'ot ul-mamolik" deb nomlangan asarida bayon etadi.

Asardagi ma'lumotlar orqali nafaqat O'rta Osiyo, balki o'sha paytlarda musulmon dunyosining katta qismida hukmronlik qilgan Kichik Osiyodagi Usmoniylar, Erondagi Safaviylar va Hindistondagi Boburiylar kabi yirik turkiy saltanatlar tarixining ayrim qirralarini ham yoritilgan. Shuningdek, asarda muallifning Samarqand, Buxoro va Xorazm kabi shaharlarni ziyorat qilgani, ulardagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotga oid qimmatli ma'lumotlarni yozib qoldirgani aks etgan. Seydi Ali Rais asarining "Turon zaminda, ya'ni Movarounnahrda yuz bergan

voqealar bayoni” deb nomlagan qismida 1555 yilda Chagʻaniyonga, Sangardak togʻidan oʻtib Shahrisabzga, soʻngra esa Samarqandga kelganligi haqida yozadi. “...Samarqand shahriga kelgach Navroʻz Ahmadxon bilan koʻrishib unga “haqirlarning tortigʻi ham haqirona boʻladi” degandek, unga keltirgan birmuncha tortigʻimizni inʼom etdik. Xon bu haqirga bitta ot, bosh-oyoq sarupo marhamat qildi. Bundan avval saodatli podshoh hazratlari (Turkiya sultoni) shayx Abdullatif va Dodosh elchi orqali Baroqxonga bir qancha miltiq otuvchilar va bir qancha qalʼa toʻplari yuborgan ekan. Elchilar kelgan chogʻlarida Samarqand podshohi Abdullatifxon vafot etib, Baroqxon Samarqandda xonlik taxtiga oʻtirgan, Balxda Pirmuhammadxon, Buxoroda esa Burhonxon oʻz nomlariga xutba oʻqitganlar. Baroqxon shu ikki xonga qarshi oldin biror chora koʻrishga qodir boʻla olmasa ham, keyinroq ularning oʻzaro janjallaridan foydalanib, avval Samarqandni olgan, keyin Shahrisabzga borib unda ham anchagina jang qilgan”. Bu maʼlumotdan anglash mumkinki, sayyoh XVI asrning oʻrtalarida Buxoro xonligida kechgan siyosiy voqealarga bevosita toʻxtalgan. Muallif Abulxayrxonning nabirasi, Toshkent hokimi Suyunchxoʻjaxonning kichik oʻgʻli Navroʻz Ahmadxon (1551-1556) haqida soʻz yuritgan. Navroʻz Ahmadxon nomi bilan mashhur boʻlgan Baroqxon oʻz saltanatini kengaytirish uchun koʻp harbiy yurishlar uyushtirgan. XVI asrning 40-yillariga kelib yirik zodagonlar va sulolalar oʻrtasida Movarounnahrning poytaxt shaharlari va mulklari uchun oʻzaro kurashlar yana avj oldi. Hukmdor xonadoni vakillari oʻrtasida ayniqsa Buxoro va Samarqand uchun kurash kuchaydi. Bu davrda Samarqandda Kuchkinchixonning uchinchi oʻgʻli Abdullatifxon (1541-1552 yy.) Buxoroda esa Ubaydullaxonning oʻgʻli Abdulazizxon (1540-1550 yy.) hukmronlik qilib har ikkalasi ham oʻzini rasmiy xon deb hisoblar edi. [3,88]

Oʻzaro hamda sulolaviy kurashlar davom etayotgan bir sharoitda Shayboniyxonning avlodidan boʻlgan Muhammad Yorsulton bir necha oy taxtni boshqarganidan soʻng amaldagi hokimiyat Baroqxon qoʻliga oʻtdi. Toshkent va Sirdaryo boʻyidagi shaharlar hukmdori boʻlgan Navroʻz Ahmadxon Buxoroda oʻz hokimiyatini tan oldirish uchun Samarqand va Movarounnahrning boshqa shaharlariga bir necha marta yurishlar qilib turdi. Seydi Ali Rais mamlakatdagi siyosiy vaziyat Abdullatifxonning vafoti, Buxoro taxtni egallash uchun olib borilgan kurashlarni aks ettirib, Navroʻz Ahmadxon Samarqand, Shahrisabz, Buxoroni egallagani va Shahrisabzda boʻlib oʻtgan jangda turk askarlarining bir-necha boshliqlari halok boʻlganligi haqida ham toʻxtalib oʻtadi. Jumldan, “Elchilar kelgan choqlarida Samarqand podshohi Abdullatifxon vafot etib, Baroqxon Samarqandda xonlik taxtiga oʻtirgan, Balxda Pirmuhammadxon, Buxoroda esa Sayid Burhonxon oʻz nomlariga xutba oʻqitganlar. Baroqxon shu ikki xonga qarshi oldin biror chora koʻrishga qodir boʻla olmasa ham, keyinroq ularning oʻzaro janjallaridan foydalangan, avval Samarqandni olgan, keyin Shahrisabzga borib, unda ham

anchagina jang qilgan. Bu jangda rumliklar (turklar)ning bir nechta boshliqlari o'lgan. Nihoyat Shahrisabz ham uning qo'liga o'tgan. Yana u yerdan Buxoroga borib, shaharni bir necha vaqt muhosara etgan. Buxoro xoni Sayid Burhon Qorako'lni Balx xoni Pirmuhammadxonga bergani uchun Pirmuhammadxon o'z inilarini yuborib, u shaharni qo'lga kirgizgan. Sayid Burhon (Baroqxonga) chidash berolmay, nochor unga tobe bo'lib, oralarida sulh tuzilgan. Baroqxon u viloyatni yana Sayid Burhonga topshirib, o'zi Qorako'l ustiga yurgan. Pirmuhammadxonning inilari Baroqxondan omon tilab, Qorako'lni unga topshirganlar. Baroqxon bu shaharni ham Sayid Burhonga qoldirib, Samarqandga qaytib kelgan. Shundan keyin rumliklarning boshliqlaridan biri o'z yoniga bir kancha kishilarni olib, Toshkent va Turkiston yo'li bilan Rumga jo'nagan. Ahmad nomli bir rumlik chovush ham Buxoro va Xorazm yo'li bilan Rumga qaytib ketgan. Bir qancha yanicheri (turk askari) Sayid Burhon yoniga va bir qanchasi esa Baroqxonning o'g'illari yoniga ketganlar, uning (Baroqxonning) yonida esa, atigi bir yuz elliktacha rum askari qolgan. Baroqxon bu ahvolni menga bayon etib: "Saodatli podshox hazratlari (sulton) yonida yolg'onchi bo'lib qoldik, biror ish qila olmadik. Agar bizga ko'mak bersangiz, hali ham biror ish qilish mumkin bo'ladi", dedi va bir viloyat hokimligini bu kaminaga taklif etdi. Haqir yana: "Shugina odam bilan hech ish qilish mumkin emas va podshohning buyrug'i bo'lmasdan xech narsaga aralasha olmaymiz",- deb uning taklifini qat'iy suratda rad etgan edim, noiloj ketishga ruxsat berdi va: "Endi sizga elchi qo'shib, ahvolimizni podshoh olampanohga arz etaman", — deb hazrat xoja Ahmad Yassaviy avlodidan Sadri Olam shayxni elchilikka tayin etdi. "Bundan keyin podshoh hazratlari qanday buyursalar, shunga muvofiq ish tutamiz" degan mazmunda xat yozib elchisining qo'liga topshirdi.". Ushbu ma'limotdan shuni anglash mumkinki, Seydi Ali Rais ko'proq e'tiborni mamlakat ichida ro'y berayotgan voqealarga qaratgan va sulton hokimiyatining Buxoro xoniga nisbatan siyosiy nufuzini yuqori ekanligi tasvirlagan. [4,66]

Xulosa qilib aytganda, Seydi Ali Raisning maskur asari tarix, adabiyot, geografiya va etnografiya kabi fanlar uchun juda qimmatli ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan bo'lsada, lekin ba'zi kamchiliklardan ham holi emas. Avvalo muallif Turk sultonligida yuqori martaba va harbiy unvondagi lavozimga ega ekanligi tufayli u butun umrini davlat arboblari orasida, podshoh (sulton)lar huzurida o'tkazdi. U o'z kitobida O'rta va Yaqin Sharqdagi feodal davlatlarning ichki va tashqi siyosatlari, o'zaro va tashqi aloqalari, saroydagi kechayotgan voqealar, shahzodalar o'rtasida taxt uchun kurashlar, ayrim yirik davlat arboblarning dunyoqarashlari kabi masalalarni batafsil yoritadi. Shu bilan birga qayerda bo'lgan bo'lsa o'sha yerdagi muqaddas ziyoratgohlarni tilga oladi, lekin asarining biror qismida voqealar ichida Hindiston, Afg'oniston, Movoraunnahr, Ozarbayjon, Eron va boshqa o'lkalardagi mehnatkash aholining oddiy hayoti, boshidan kechirayotgan qiyinchiliklari xususida ma'lumot bermaydi. Ehtimol u yuqori martabali shaxs

bo'lganligi boisidan ham bu jarayonlar uning dunyoqarashidan chetdda bo'lgan. Shunga qaramay, "Mir'otul mamolik" asari O'rta Osiyo xonliklarining XVI asr tarixini yoritishda o'z o'rniga ega bo'lgan manbalardan biridir. [5,75].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Seydi Ali Reis, Mir'ätü'l-Memâlik-İnceleme, Metin-Index, ed. Mehmet Kiremit, Türk Dil Kurumu Yayınları, Ankara, 1999. 76-84-b.
2. Defterdar Seyfi Çelebi, Türkistan ve Uzak Doğu Seyahatnamesi, ed. Serkan Acar, Selenge yayınları, İstanbul, 2014. 120-132-b.
3. Сейди Али Раис. Миръотул мамолик. – Т., 1963. 84-96-b.
4. Davronov X.Z. Usmonli sayyohlari asarlarida O'rta Osiyo xonliklaridagi shaharlar tavsifi//Xorazm Ma'mun Akademiyasi Axborotnomasi –12/3-2023. 64-68-b.
5. Тўраев Ҳ. Бухоро тарихи ёзма манбалари. Бухоро: Durdona, 2023. 74-79-b.
6. Fayzraxmanova Z.I. Shayboniylar davriga oid manbalar tahlili// <https://doi.org/10.5281/zenodo.13269424>.